SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus son (5-jild)

2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI11Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/11 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 11-maxsus son (dekabr, 2025). - 474 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ ........ 11-19

*Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич*
ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ ........ 20-29

*Kaypova Malika Dautbay qizi*
MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ........ 30-33

*Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali*
QO‘QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI ........ 34-39

*Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi*
TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA’MURIY-HUDUDIY BOSHQARUVI TARIXSHUNOSLIGI ........ 40-47

*Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы*
ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) ........ 48-54

*Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой*
НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ «АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ ........ 55-64

*Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich*
OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI ........ 65-70

*Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o‘g‘li*
O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) ........ 71-76

*Abdurasulov Akmaljon*
TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI ........ 77-86

*Abatov Aydos*
QORAQALPOG‘ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) ........ 87-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Pirmatova Farangiz Ma’rufjonovna*
THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES ........ 91-99

*Jumabayev Adilbek Bazarbayevich*
WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL ........ 100-107

*Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi oʻgʻli*
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QOʻLLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH ........ 108-114

*Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,*
INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY........ 115-123

*Турдиев Гайрат Ялгашевич*
РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНН СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ........ 124-129

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich*
SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIY MUAMMOLARINING IJTIMOIY FALSAFIY TAHLILI .. 130-134

*Kenjayeva Dilrabo Rominovna*
INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAGʻRIKENGLIK ........ 135-139

*Karimov Raxmat Raxmanovich*
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ ........ 140-146

*Ergashev Urolbek Berkinovich*
NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKOʻPRIZODA YONDASHUVI........ 147-151

*Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi*
IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI........ 152-155

*Abdunazarov Lutfillo Mamanovich*
YANGI OʻZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI........ 156-160

*Tangirov Nizom Abduraxmonovich*
NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 161-166

*Yusupova Nargiza Roʻstamovna*
OʻZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI........ 167-172

*Xudoykulov Azamat Beshumovich*
MAʼNAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA GʻOYAVIY TARBIYANING OʻRNI ........ 173-177

*Xamdamov Behzod*
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK GʻOYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI ........ 178-185

*Bekchanov Sanjar Ibragimovich*
“MODERNIZATSIYA” TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR........ 186-190

*Adizov Azim Tolibovich*
IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI........ 191-196

*Eshmurodov Nabillo*
GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVIYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI ........ 197-201

*Yokubov Suxrob Firdavsovich*
TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI ........ 202-206

*Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI ........ 207-210

*Otokulov Abror Sobirkulovich*
JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI ........ 211-217

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI ........ 218-222

*Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna*
DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI ........ 223-228

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*
POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK ........ 229-233

*Karimova Ozodaxon Avazxon qizi*
A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS ........ 234-240

*Айтмуратова Турсынай Маратовна*
КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ ........ 241-244

*Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna*
KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ........ 245-248

*Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi*
THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM ........ 249-258

*Холикова Замира*
СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 259-272

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Турсунова Маликахон Улугбековна*
СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 273-286

*Karaketova Dilnoza Yuldashevna*
JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV ........ 287-294

*Мируктамова Феруза Лутфуллаевна*
ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ ........ 295-300

*Xodjiev Yunus Muxitdinovich*
MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI ........ 301-309

*Akayeva Marapat Abduxalikovna*
FUQAROLIK HUQUQIDA ASOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ... 310-317

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh oʻgʻli*
ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TAʼSIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI ........ 318-326

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*
EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TAʼMINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI ........ 327-332

*Шомуратова Пальмира Комил қизи*
РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ ........ 333-339

*Калдарбеков Асылжан Оспанович*
РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА ........ 340-351

*Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi*
SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA OʻZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL ........ 352-359

*Urakov Djaxongir Rajabovich*
PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR OʻRTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI ........ 360-365

*Байтурова Аида Набиевна*
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 366-373

*Xushvaqtov Oʻtkir Temirovich*
VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI ........ 374-382

*Mustafaqulov Dilshod Salomovich*
NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI ........ 383-389

*Nomazov Ixtiyor Ismailovich*
ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KOʻRSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QOʻYISH ........ 390-394

*Xoliqnazarov Farhod Bozor oʻgʻli*
INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ... 395-399

*Normuratov Aktam Tulaboy oʻgʻli*
OLIY TAʼLIM TIZIMIDA SUNʼIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 400-403

*Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна*
ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ ........ 404-411

*Rasulov Baxtiyor Shavkatovich*
OʻZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI ........ 412-418

*Javliyeva Gullola Abdurahim qizi*
IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA....... 419-425

*Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi*
ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 426-434

*Ядгаров Шахрух*
ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА........ 435-439

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li*
FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH........ 440-446

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI........ 447-451

*Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna*
MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI........ 452-457

*Raximova Lolaxon Abduraximovna*
TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI........ 458-462

*Toshmamatova Munisa Toshmamatovna*
UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI........ 463-466

Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna
INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS........ 467-473

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 11 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 1 December 2025
**Accepted:** 15 December 2025
**Published:** 30 December 2025

*Article / Original Paper*

# THE HISTORY OF COOPERATION IN THE ESTABLISHMENT OF PRINTING IN TURKESTAN

**Abdurasulov Akmaljon**
PhD student at Namangan state Pedagogical Institute

**Abstract.** This article attempts to provide a detailed analysis of the emergence, widespread dissemination, and development of printing in Turkestan. It explores the objectives pursued by Russian colonizers in establishing printing houses, as well as the cooperation between Turkestani enlighteners and progressive representatives of various nations in laying the foundations of national printing and journalism. New information related to the origins of printing has been introduced into scientific circulation.

**Keywords:** Otajon Abdalov, Kazan, Shohimardon Ibrohimov, Bazilevskiy, Shahingirey Bekqulov, Pastukhov, Laxtin, Esanboy Husaynboi ogli, Azimkhoja, Matbaai Ishoqiya, Orif Afandi, Gulom Hasan Arifjonov.

# TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI

**Abdurasulov Akmaljon**
Namangan davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti
E-mail: abdurasulovakmaljon1987@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkistonda matbaaning vujudga kelishi, keng yoyilishi va rivojlanish jarayonlari batafsil yoritishga harakat qilindi. Maqolada rus mustamlakachilarining matbaani tashkil etishdan koʻzlagan maqsadi, turkistonlik maʼrifatparvarlarning milliy matbaa va matbuotga asos solish yoʻlida turli millat taraqqiyparvarlari bilan hamkorlik aloqalari yoritildi. Matbaachilikning vujudga kelishiga doir yangi maʼlumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

**Kalit soʻzlar:** Otajon Abdalov, Qozon, Shohimardon Ibrohimov, Bazilevskiy, Shahingirey Bekqulov, Pastuxov, Laxtin, Esanboy Husaynboʻy oʻgʻli, Azimxoʻja, Matbaai Ishoqiya, Orif Afandi, Gʻulom Hasan Orifjonov.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N10

**Dolzarbligi.** XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkistonni istilo qilgach, Turkiston orqali boshqa Sharq mamlakatlarini egallash, Turkistonda xomashyo tayyorlash ishlarini yoʻlga qoʻyish, rivojlanishni boshlagan Rossiya sanoatini bozor bilan taʼminlash va oʻlkani mafkuraviy tomondan zabt etishni oʻz oldiga asosiy masala sifatida qoʻydi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mustamlakachilarga kuchli mafkuraviy qoʻrgʻon kerak edi. U shunday kuchli mafkuraviy qoʻrgʻon boʻlishi kerak ediki, barcha mustamlakachilarni va turli ijtimoiy guruhlarni shu masala atrofida birlashtirishi lozim edi. Buning uchun eng yaxshi qurol matbuot edi. Matbuotning bu masalada ulkan taʼsirini yaxshi tushungan istilochilar Toshkentni zabt etganiga besh yil toʻlmasdan Turkistonda ilk matbaaga va gazetaga asos soldilar.

Mustamlakachilar tomonidan chiqarilgan, oʻzbek tilida nashr qilingan ilk gazeta “Turkiston viloyatining gazeti” ruslashtirish siyosatining faol targʻibotchisiga aylandi. Oʻlka xalqlarini ruslashtirish siyosatidan saqlash, milliy madaniyat va qadriyatlarni asrash, oʻlkani

rivojlantirish va Turkiston xalqlarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy saviyasini yuksaltirishni maqsad qilgan jadidlar milliy matbuot va matbaaga asos soldilar. Turkistonlik ma’rifatparvarlar milliy matbuot va matbaaga asos solishda turli millat vakillari, birinchi navbatda tatar, boshqird va boshqa musulmon xalq vakillari hamda rus millatiga mansub noshirlar bilan hamkorlik qildilar.

Tadqiqotlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Turkistonda matbaaning vujudga kelishiga doir sovet davridagi tadqiqotlarda asosan Rossiya imperiyasi hukumati va rus millatiga mansub matbaachilar tomonidan asos solingan nashriyotlar faoliyati batafsil o‘rganilib, mahalliy millatga mansub ma’rifatparvarlar tomonidan asos solingan bosmaxonalar faoliyati yoki tatar, boshqird va boshqa musulmon ma’rifatparvarlar tomonidan asos solingan matbaalar faoliyati juda kam tadqiq qilingan, o‘rganganlari ham bir tomonlama yoritgan bo‘lib, Rossiya imperiyasi omili oshirib ko‘rsatilgan. Sovet davridagi tadqiqotlarda rus mustamlakachilari tomonidan mahalliy ziyolilarga bosma ishlari tashkil qilinishiga turli to‘siqlar qo‘yilganligi e’tiborga olinmasdan, mahalliy matbaachilarning faoliyati kommunistik mafkura doirasida baholangan edi. Sovet davridagi tadqiqotlarda Buxoro amirligida matbaa XX asr boshlarida vujudga kelganligi va ilk matbaaga rus noshirlari asos solganligi yozilgan. Vaholanki, Buxoro amirligida ilk matbaaga XIX asrning 80-yillarida mahalliy noshirlar tomonidan asos solingan.

Xuddi shu Sho‘rolar davridagi tadqiqotlarda hamda Mustaqillik davridagi tadqiqotlarda Turkistonda matbaachilikning tashkil etilishida hamkorlik aloqalari o‘rganilmagan. Maqolada Turkiston ziyolilarining matbaa faoliyatini yo‘lga qo‘yishda turk-musulmon ma’rifatparvarlari bilan hamkorlik aloqalari yoritildi.

**Metodlar va o‘rganilganlik darajasi.** Ushbu maqola tarix fanida qabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik tamoyillari asosida yoritildi. Husayn Shams qalamiga mansub “Matbaachilik tarixi”, T. Ernazarov va A. Akbarovning “История печати Туркестана”s, A. Boboxonovning “O‘zbek matbaasi tarixi asari”, Z. Abdurashidovning “Tarjimon gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi”, M. P. Avsharovaning “Русский периодическая печат в Туркестане”, Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar”, Chabrovning “Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане” (1868–1917) va “У истоков узбекской полиграфии (хивинская придворная литография 1874–1910 гг.)” asarlarida, U. Dolimovning “Is’hoqxon To‘ra Ibrat”, N. Abduazizovaning “O‘zbekiston matbuoti tarixi”, Alisher Isoqboevning “Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma’rifatparvarlarining faoliyati”, “T. Ernazarovning Turkistonda vaqtli matbuot”, S. Agzamxo‘jayev va Z. Ulug‘bekovaning “Al-isloh jurnali – Turkistondagi islohotchilik harakatini o‘rganish bo‘yicha tarixiy manba”, Begali Qosimovning “Milliy uyg‘onish” asarlarida Turkistonda matbaani vujudga kelishiga doir ma’lumotlar berib o‘tilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Insoniyat tarixida buyuk kashfiyotlar juda ko‘p. Bunday kashfiyotlar insoniyat tarixining rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Matbaachilik shunday buyuk kashfiyotlardandir. Matbaa mashinalarining kashf qilinishi va takomillashtirilishi XVI asrdan boshlab Yevropa madaniyatining misli ko‘rilmagan darajada yuksalishini boshlab berdi. Avvallari juda kamyob va qimmatbaho hisoblangan kitoblar ancha arzonlashdi va har bir Yevropalikning uyida paydo bo‘ldi. Kitobning ommaviy tarqalishi Yevropa aholisi orasida savodsizlikni kamaytirib ma’rifatga intilishni kuchaytirdi. Yevropada fikrlarni, g‘oyalarni

insonlarga yetkazish ancha osonlashdi. Gazeta va jurnallarni paydo bo'lishi g'oya va fikrlarni yetkazishni yanada qulaylashtirdi. Yevropada erkinlik, hur fikrlilik g'oyalari keng yoyildi. Yevropada tom ma'noda fikrlar va g'oyalar o'rtasida kurash boshlandi. Bu shafqatsiz kurash fikrlar xilma-xilligini keng yoyilishiga, ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishiga, Yevropaning Osiyo mamlakatlaridan taraqqiyotda ancha oldinlab ketishiga sabab bo'ldi.

Vatanimiz hududida matbaachilik nisbatan kech shakllangan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimiy kitobat va xattotlik an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Kitoblar asosan xattotlar tomonidan qo'lda ko'chirilgan. XV–XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda xattotlik san'ati yuksak darajada rivojlanib, yangi uslub va yo'nalishlar vujudga keldi. Jumladan, Temuriylar davrining mashhur xattoti Mirali Tabriziy nasta'liq xatini yaratgan bo'lsa, Sultonali Mashhadiy xattotlik san'atiga bag'ishlangan maxsus asar yozgan.

Hirotda Boysung'ur Mirzo kutubxonasida qirq nafar xattot hamda bir qator naqqoshlar faoliyat yuritib, kitoblarni ko'chirish, bezash va miniatyuralar bilan boyitish bilan shug'ullanganlar. Ushbu kutubxonada yaratilgan asarlar o'zining nafis bezaklari, yorqin ranglari va jonli miniatyuralari bilan ajralib turgan. Xonliklar davrida ham Turkiston hududida xattotlik san'ati rivoji izchil davom etgan. O'sha davrda O'rta Osiyo shaharlarida kitob savdosiga ixtisoslashgan maxsus bozorlarning mavjudligi kitobat san'ati keng rivojlanganidan dalolat beradi. Masalan, Buxoro shahridagi usti yopiq Toqi kitobfurushon bozori buning yaqqol isbotidir.

1870–1917-yillar Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri sifatida milliy tariximizda muhim o'rin tutadi. Aynan shu yillarda Turkistonda matbaachilik yo'lga qo'yilib, bu hodisa mintaqa hayotida yangilik bo'ldi. Nashriyot va noshirlik faoliyatining kirib kelishi Turkiston xalqlari madaniyati uchun katta ahamiyat kasb etdi. Dastlab Rossiya ma'murlari matbaadan mustamlakachilik siyosatini yuritish, o'z g'oyalarini targ'ib qilish va ruslashtirish maqsadida foydalanishga harakat qilgan bo'lsalar, Turkiston ziyolilari uni aksincha, xalqni jaholat va zulmdan xalos etish, ma'rifat tarqatish va milliy uyg'onishga xizmat qildirish vositasi sifatida ko'rganlar.

Rossiyada arab alifbosiga asoslangan matbaa XVIII asr boshlarida paydo bo'ldi. Ulardan birinchisi 1723-yili Astraxanda ochilgan. Oradan biroz vaqt o'tib Peterburg, Moskva, Qozon shaharlari hamda Qrim va Kavkaz hududlarida ham xuddi shunday matbaalar paydo bo'ldi[1]. 1799-yilda Rossiya imperatori Pavel I ning farmoniga ko'ra Qozon shahrida musulmon matbaasi ochilgandan keyin bu shahar bosma kitobchilik markaziga aylangandi[2]. Imperatorning 1801-yildagi yana bir farmoni bilan Rossiya musulmonlariga rasmiy ravishda o'z kitoblarini chop etish uchun ruxsat berildi. Shundan so'ng tatar savdogarlari bosma kitob savdosiga kirishdilar. Savdogarlar yangi kitoblar bosmasini mablag' bilan ta'minlay boshladi. 1801-yildan 1810-yilgacha Qozon matbaalarida 43 turli mazmundagi diniy kitoblar nashr qilindi[3].

Turkistonda kitob chop etish XIX asrning 70-yillarida Rossiya o'lkani egallaganidan so'ng boshlandi. Turkistonda bundan oldin kitob chop etilmagan bo'lsa-da, sayyohlar va haj safaridan qaytayotganlar tomonidan Hindiston va Turkiyadan turli bosma kitoblar olib kelingan. Ushbu kitoblarning aksariyati fors tilida bo'lgan. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, Buxoroda hind bosma kitoblari turk bosma kitoblaridan ancha ko'p tarqalgan[4]. O'lkada birinchi bosmaxonaga 1868-yilda harbiy okrug shtabi huzurida asos solindi. Lekin bu

bosmaxona yaxshi jihozlanmaganligi tufayli faqatgina devon materiallari, turli blankalar va buyruqlarni bosib chiqarishga moslashgan edi. Shu sababdan 1869 yilda boshqa bosmaxona tashkil qilindi. Ushbu yangi bosmaxona nafaqat rus, balki arab harflariga ham ega boʻlib, 1870 yildan toʻliq oʻz faoliyatini boshlagan[5].

Turkiston general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman 1870-yil 20-avgustda gazeta chop etishga qodir boʻlgan yangi bosmaxonani Turkiston general-gubernatori devoni qoshida ochish haqida farmon chiqardi[6]. Bosmaxonani zarur boʻlgan mutaxassis-kadrlar va harflar bilan taʼminlash Gomdinga topshiriladi. Arab alifbosidagi tatar harflarini professor Gotvold Toshkentga joʻnatadi[7].

1872-yil 14-aprelda fon Kaufman tomonidan tasdiqlangan hujjatda matbaada ishlaydigan mutaxassislarning oylik maoshlari keltirilgan. Unga koʻra arab alifbosida harf teruvchi ikki mutaxassis 600 soʻmdan 1200 soʻm maosh olishi belgilangan. Arab alifbosida ishlovchi ikki yordamchi jami 504 soʻm, tatar matbaachiga 480 soʻm maosh belgilangan[8].

Turkistonda bosmadan chiqarilgan dastlabki kitob mashhur rus sayyohi N. Seversovning qirq sahifadan iborat boʻlgan risolasi edi. Oʻzbek tilida bosmadan chiqqan dastlabki kitob Shohimardon Ibrohimov tomonidan tayyorlangan “Taqvim” edi[9]. Oʻzbek tilida bosmadan chiqqan ilk gazeta “Turkiston viloyatining gazeti” boʻlib, uni doimiy ravishda chiqishi uchun arab harflari yetishmagan. Arab harflari bazasini boyitish vazifasi N. A. Mayevga topshiriladi. Uning hisobotidan maʼlum boʻlishicha 20 pud arab harflari va poligrafiya anjomlari Sankt-Peterburgdagi O. I. Leman harf quyuv firmasiga buyurtma qilingan[10].

Keyinchalik “Turkiston viloyatining gazeti”ga eskirgan arab harflari oʻrniga yangi harflar kerak boʻlib qolganda Qozon shahridagi P. N. Xaritonovning harf quyuv zavodiga literlar buyurtma qilinadi. 1915-yil bu arab alifbosidagi harflarni Shohingirey Bekqulov Qozondan tuyalarda Toshkentga olib keladi[11].

Shu tariqa Turkistonda matbaachilik rivojlana boshladi. Rus matbaachilari tomonidan tijoriy maqsadlarda xususiy bosmaxonalarga asos solina boshlandi. Bu bosmaxonalarda rus millatiga mansub mutaxassislar bilan birgalikda tatar millatiga mansub mutaxassislar ham mehnat qilganlar. Ular tijoriy maqsadlarda arabiy harflarda kitob bosishni ham yoʻlga qoʻygan edilar. Bu masalada rus noshirlari tatar matbaachilaridan foydalandi. Ayni paytda bu matbaaga mahalliy millat vakillari ham koʻproq harf teruvchi sifatida ishga qabul qilingan.

Masalan, Bazilevskiy matbaasida tatar mutaxassis harf teruvchilari — Shohingirey Bekqulov, Abdulatif Yavushev va Ali Bektemirovlar faoliyat koʻrsatganlar. Bu odamlarning qoʻliga shogird qilib mahalliy xalq vakillari Sirojiddin Xoʻjaev, Hamid Xoʻjaev, Abdurahmon Xoʻjaevlar olinganlar[12]. Bu shaxslar dastlabki oʻzbek matbaachilaridan hisoblangan. Shu tariqa mahalliy millat vakillari orasida ham bosmaxona ishlari boʻyicha mutaxassislar shakllana boshladi.

Matbuot va matbaa ishlari boʻyicha boshqarmaga kitob savdosi, fotografiya doʻkonlari, kutubxona, bosmaxona, harf quyish muassasalari haqida berilgan Maʼlumotga koʻra 1877-yilda Toshkent shahrida uchta fotografiya doʻkoni va uchta poligrafiya korxonasi faoliyat koʻrsatgan[13].

1897-yilda Toshkentda aholini ommaviy roʻyxatga olish tadbiri oʻtkaziladi. Roʻyxat maʼlumotlariga koʻra poligrafiya sohasida ishlagan mutaxassislar soni 116 kishi boʻlib, shulardan 33 kishi yoki mutaxassislarning 28,4 foizi mahalliy xalqdan chiqqan mutaxassislar

edi. Sanoat kitobatchilik sohasida 44 kishi shugʻullangan boʻlib, shulardan 39 nafari yoki 88,6 foizi mahalliy millat vakillari edi[14].

XX asr boshlarida bosmaxonalar soni ikki baravardan ortiqqa oʻsdi, ishchilar soni esa 676 kishiga yetdi. Mutaxassislarning 72 tasini oʻzbeklar, 472 tasini ruslar, qolganini boshqa millat vakillari tashkil etgan[15].

Turkistonda bosmaxonalarning vujudga kelishi va taraqqiyotini hududlar kesimida koʻradigan boʻlsak, Xiva xonligi madaniyatni yuksaltirishga intilishi Oʻrta Osiyoning qolgan mintaqalariga nisbatan kuchliligi, yangiliklarga nisbatan ochiqligi, oʻzbek xonliklari ichida birinchi matbaaga asos solinishida buning asosiy omili edi.

Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II qarori bilan 1874-yili Erondan litografik uskunalar olib kelindi va saroyda tipolitografiya tashkil etildi. Xon saroyida tashkil qilingan tipolitografiyani eronlik toshbosma boʻyicha mutaxassis Ibrohim Sulton ishga tushirdi. Dastlab litografiya xon saroyida saqlanayotgan nodir qoʻlyozma asarlarni kitob shaklida nashr qilish maqsadida olib kelindi. Bu bilan shugʻullanuvchi maxsus shoʻbaning boshligʻi qilib saroy shoiri Tabibiy tayinlangan. Ibrohim Sulton bitta oʻzi bu bosmaxonada ishlashga qiynalganidan soʻng Otajon Abdalov shogirdlikka olinadi. Otajon Abdalov toʻrt yil davomida shogird boʻlib, matbaachilikni qunt bilan oʻrganadi. Dastlab litografiyada baʼzi hujjatlar chop etila boshlandi. Eronlik Ibrohim Sulton bilan tuzilgan shartnoma tugagach, u Eronga joʻnab ketadi va bu ish masʼuliyati Otajon Abdalov zimmasiga yuklatiladi[16]. Bu litografiyada birinchi kitob 1876-yilda nashr qilingan boʻlib, bu Abu Nasr Farobiyning "Nisobus-Sibyon" asaridir[17]. Ushbu bosmaxona «Podshohi zamon» Tipolitografiyasi» deb nomlangan boʻlib, tadqiqotlarga koʻra Muhammad Rahimxon II matbaani Jenevadan keltirgan ekan[18]. Bu litografiyaning tashkil etilishi Turkiston madaniy hayotida katta hodisa boʻlsada, bosmaxona tijoriy maqsadlarda qoʻllanilmaganligi sababli Xiva aholisiga taʼsiri juda oz boʻlgan.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1896 yildagi Rossiyaga qilgan safari davomida Nijniy Novgorodda har yili tashkil etiladigan anʼanaviy koʻrgazma-bozorga tashrif buyuradi. Xon koʻrgazma pavilyonlaridan birida qoʻyilgan bosma uskunasiga eʼtibor beradi va uni barcha kerakli ashyolari bilan sotib olishga qaror qiladi. Ismoil Gʻaspirali bergan xabarga koʻra, Muhammad Rahimxon sotib olinajak bosmaxona uskunasini Xivadagi madrasalardan biriga vaqf qilish niyatida boʻlgan[19]. Ammo bu matbaa xususida boshqa maʼlumot uchramaydi.

Turkistonda rus noshirlari tijoriy maqsadlarda xususiy bosmaxonalar tashkil qila boshladi. Toshkent shahri Turkiston mintaqasida poligrafiyaning markaziga aylandi. Turkistonda birinchi xususiy bosmaxonaga V. F. Pastuxov tomonidan 1876-yilda Toshkentda asos solingan. Dastlab u bitta bosma mashina va bitta mis bosma dastgohga ega boʻlgan. Bir yildan keyin toshbosma dastgoh oʻrnatilgan[20]. 1880-yildan bosmaxona Semyon Laxtin qoʻliga oʻtadi. Bu matbaaning rivojlanishida toshkentlik savdogar Esanboy Husaynboy oʻgʻlining xizmati katta. 1882-yilda Esanboy Husaynboy oʻgʻli Rossiyadan litografik uskunalarni sotib oladi. Ellik tuyaga yuklab Toshkentga olib kelingan toshbosma uskunalarini Semyon Laxtin oʻz bosmaxonasiga oʻrnatib, Esanboy Husaynboy ishtirokida bosmachilik ishlarini qizitib yuboradi. Maʼrifatparvar savdogar mablagʻlari hisobiga bu matbaada Toshkentdagi birinchi toshbosma kitob Soʻfi Olloyorning "Sabotul-ojizin" kitobi nashr qilindi. Bu kitobni toshkentlik xattot Saidxoʻja koʻchirib nashrga topshiradi. Nashriyotning uskuna va dastgohlarini takomillashtirishda ham Esanboy Husaynboy oʻgʻlining yordami katta boʻlgan. 1883 yildan bu nashriyot "Туркестанские ведомости" bilan "Туркистон viloyatining gazeti"ni ham chop eta

boshladi[21]. Bu nashriyotda 1889-yilda Raimxoʻja Alixoʻjayev va Muhammad Gʻanixoʻjayevlar soʻroviga binoan ularga “Zubdat ul-Masanat”, “Chor kitob”, “Qofiya” va “Bahrul-manofii” kitobini S. I. Laxtin bosmaxonasida nashr qilishga ruxsat beriladi. Keyinroq Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” kitobini S. I. Laxtin bosmaxonasida chop etishga ijozat beriladi[22].

1893-yildan bu nashriyot qarz tufayli Permlik savdogar aka-uka Kamenskiylar qoʻliga, 1899-yilda esa Vasiliy Ilin ixtiyoriga oʻtadi[23]. Vasiliy Ilin davrida nashriyot yanada rivojlanadi.

Turkistonda bosmaxona ishlari ancha kech paydo boʻlgan boʻlsa-da, toshbosma usulida kitob chop qilish ancha taraqqiy etgan edi. Chunki toshbosma uskunalari uncha murakkab boʻlmay, bosmaxona uskunalariga nisbatan bir muncha arzon edi. Shu tariqa Turkistonda bosmaxonalar soni ortib bordi.

1917-yilga kelib Toshkentning oʻzida 13 ta turli bosmaxonalar faoliyat koʻrsatgan boʻlib, ularning aksariyati rus millatiga mansub noshirlar qoʻlida edi[24]. Toshkentda faoliyat koʻrsatgan Ilin matbaasi, ayniqsa, mashhur boʻlib, mahalliy ziyolilarning kitoblari, diniy asarlar nashr qilingan. Birinchi oʻzbek gazetasi “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston” gazetalari dastlab shu bosmaxonada chop qilingan.

Rossiya mustamlakachilari mahalliy millat kishilarini bosmaxona ishlariga yaqinlashtirmaslikka urindi. Shunday boʻlsa-da, mahalliy kishilar tomonidan ochilgan bosmaxonalar soni ortib bordi. Eski tadqiqotlarda Turkistonda inqilobgacha mahalliy millat vakillari tomonidan 5 ta bosmaxona ochilganligi qayd qilingan. Bizning hisob-kitobimiz boʻyicha esa 1917-yilgacha Turkistonda mahalliy millat vakillari tomonidan 15 ga yaqin matbaa tashkil etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Samarqand viloyatida 18 ta katta-kichik bosmaxonalar boʻlib, shulardan oʻn oltitasi Samarqandning oʻzida, Kattaqoʻrgʻonda T. I. Kuriloning, Xoʻjandda I. S. Kuzminning matbaalari bor edi. Samarqandda 1894-yilda N. V. Plotoranovning tipolitografiyasi, 1898-yili K. M. Fedorovning matbaasi tashkil qilingan edi[25]. 1899-yili bokulik savdogar G. I. Demurov litografiyasi ishga tushdi[26]. Keyinchalik bu bosmaxona Samarqand shahrining eng yirik matbaasiga aylanadi. Manbalardan shu narsa maʼlum boʻldiki, Turkistonda ilk tikuv va zarhallovchi poligraf mashinalar Demurov tipo-litografiyasida boʻlgan. Bunday mashinalarni bokulik savdogar Varshavadan mutaxassislar bilan birga keltirgan. Matbaada Tibilisilik mutaxassislar ham ishlagan. Varshavalik mutaxassislar Turkiston matbaachilariga kitob hoshiyasini boʻyash usulini olib keldilar[27].

Fargʻona viloyatida birinchi mahalliy matbaaga Margʻilonlik Azimxoʻja asos solgan. Azimxoʻja Sharq mamlakatlariga qilgan safaridan qaytayotib, Bombaydagi tosh bosmaxonalardan biriga kirib, kitob nashr qilish hunarini oʻrganadi. 1887 yilda oʻzi bilan birga tosh bosmasi uchun zarur boʻlgan anjomlarni gubernator ruxsatisiz olib kelib, Qoʻqonda chopxona tashkil etgan. Bu bosmaxona dastgohidan “Haftiyak” va “Chor kitob” singari diniy kitoblarni nashr etganlar[28]. Bu litografiya gubernatorni ruxsatisiz tashkil qilinganligi uchun musodara qilingan.

Namanganda mahalliy millat vakillaridan birinchi boʻlib Isʼhoqxon Ibrat bosmaxonaga asos soldi. Ibrat 1907 yil Orenburgga borib, Rizo Faxriddinning “Shoʻro” jurnali faoliyati bilan tanishadi. Gaufman degan matbaachidan pulini 10 yilda toʻlash sharti bilan 1901 yilda chiqqan litografik mashina sotib oladi. Uni katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qoʻqonga poyezdda, Qoʻqondan Toʻraqoʻrgʻonga tuyalarda olib keladi. 1908 yildan hukumatdan bosmaxona tashkil

qilish uchun ruxsat oldi. Uning bu bosmaxonasi “Matbaai Is’hoqiya” nomi bilan shuhrat topdi[29]. “Tarjumon” va “Vaqt” gazetalarida “Matbaai Is’hoqiya” bosmaxonasi tashkil etilgani haqida maqolalar e’lon qilindi. 1908-yil Is’hoqxon Ibrat xattot Mirrajab Bandiy bilan hamkorlikda savod chiqarishga bag‘ishlangan “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” asarini nashr qildi[30]. Bu bosmaxonadan chiqqan Ilk kitob edi. Is’hoqxon To‘ra matbaani ilm tarqatish uchun tashkil qilgan edi. Shuning uchun matbaa joylashgan binoning peshtoqiga nur taratayotgan quyosh tasvirini chekib, uning ichiga zarhal harflarda “ilm” so‘zini yozdirgan edi. Bosmaxona kitoblardan tashqari e’lonnomalar, har xil blankalar, tabriknomalar, kartochkalar va maktub varaqalari nashr qilgan. Chunki, matbaa o‘z xarajatlarini qoplash va kredit qarzidan qutulish uchun ilm-ma’rifat va maorifga aloqasi bo‘lmagan mahsulotlarni chiqarishga majbur bo‘lgan.

Xalq orasida kitob va risolalarga bo‘lgan talabning ortishi natijasida bosmaxona 1910-yil Namangan shahriga ko‘chirildi va tipolitografiyaga aylantirildi[31]. Bu matbaani rivojlanishida tatar matbaachilari Husayn Makayev, Abdufattoh Abdusattorov, Oxunzoda Abdurauf Shahidiylar katta yordam berdilar. 1908–1909-yillarda Oxunzoda Abdurauf Shahidiy, 1910–1913-yillarda Husayn Makayev, 1913–1917-yillarda M. N. Abdusattorov matbaaga mudirlik qildilar[32]. Matbaa mahsulotlarining kun sayin ortib borishi Namangan uyezdida kitob do‘konlarining bir muncha ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Oktyabr to‘ntarishidan keyin bosmaxona musodara qilindi. Sho‘rolar hokimiyatining dastlabki yillarida bu litografiyada “Narodnaya gazeta”, “Erkinlik”, “Ishchilar qalqoni”, “Sovdeb”, “Rosta” kabi gazetalar nashr qilindi[33]. 1918-yil mart oyida sovet hokimiyatining qarori bilan Tipolitografiya davlat hisobiga musodara qilindi va “Matbaai Is’hoqiya” nomi olib tashlanib “Udarnik” nomida faoliyat ko‘rsatdi[34].

Is’hoqxon Ibratga matbaani rivojlantirishda yordam bergan Husayn Makayev keyinroq o‘zi alohida matbaaga asos soldi va 1917-yil 5-noyabrda “Farg‘ona sahifasi” gazetasini chiqara boshladi[35]. 1913–1917-yillarda “Matbaai Is’hoqiya”ga mudirlik qilgan M. N. Abdusattorov 1917-yilda Namanganda o‘zining alohida matbaasini tashkil qildi[36].

Umuman olganda, XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida matbaalar soni o‘ttizga yetgan. Ulardan Baranovskiy, Minakov, O. Mahmudov, Belskiy, G. Shumakov va boshqalarning bosmaxonalari salmoqli faoliyat ko‘rsatgan[37].

Sobiq Ittifoq va mustaqillik davridagi tadqiqotlarda Buxoro amirligida matbaaga Turkistonning boshqa hududlariga qaraganda ancha kechroq asos solingani yoziladi. Bunda tadqiqotchilar Buxoro amirligi islom dinining markazi bo‘lganligi, ulamolarning ta’siri katta bo‘lganligi, Buxoro hukumatining va ulamolarning konservativ qarashlari, an’anaviylikning kuchliligi yangiliklarning kirib kelishiga to‘sqinlik qilgan deb baholashadi. Ammo so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Buxoro amirligida dastlabki bosmaxonaga 1880-yillarda asos solingan. Bu ma’lumotlar amirlikda noshirlik ishi Turkistonning boshqa mintaqalariga nisbatan ancha oldinda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Masalan, o‘z ismini “Buxorolik bir kishi” deb tanishtirgan “Tarjumon” gazetasining o‘quvchilaridan biri gazetaga yuborgan maktubida 1884 yili Buxoroda litografik bosmaxona ochilgani xabarini beradi. Bu bosmaxona Mulla Muhsin degan odam tomonidan ochilgan. U haj ziyoratidan qaytishda Hindistonda bosmaxona uskunasini sotib olgan va o‘sha yerlik ishchilar bilan birga Buxoroga olib kelgan. O‘sha yilning o‘zida bu bosmaxona “Haftiyak”, “Aqoid” kitoblari bilan Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sini ham nashr qilgan. “Tarjumon” gazetasining

1886-yilgi sonlaridagi Buxorodan yuborilgan xabar va maktublarda 1885-yili Buxoroda Hoji Azimboy degan odam yana bir bosmaxona ochgan va bir necha kitoblar chop qilgani hamda 1886-yili yangi litografik bosmaxona tashkil qilinib, unda taqvim chop etilishi moʻljallangani haqidagi maʼlumotlarni koʻrish mumkin[38].

Buxoro amirligida eng keksa matbaalardan biri Buxoro shahar matbaasi boʻlib, bu bosmaxonada 1891-yil Abdurasulning “Hikmatul-ayn” kitobi chop etiladi[39]. Buxoro amirligi hududida rus noshirlari tomonidan tashkil qilingan bosmaxonalarga misol tariqasida 1901-yil Kogonda tashkil etilgan Baranovskiy litografiyasini keltirish mumkin[40]. Buxoroda Obidjon Mahmudov tomonidan tashkil qilingan matbaa 1905 yilda Qoʻqonga Koʻchirilgan. 1910-yilda Orif Afandi matbaasi tashkil qilindi. Bu bosmaxonada Mirzo Abdulqodir Bedilning “Gʻazaliyyoti” nashr qilindi[41].

Gʻulom Hasan Orifjonov matbaasi Toshkentda mahalliy ziyolilar tomonidan tashkil etilgan, eng samarali faoliyat koʻrsatgan mahalliy nashriyotlardan biri boʻlib, XIX asr oxirida ish boshlagan. Gʻulom Hasan Orifjonov matbaaga savdogar togʻasi Qosimboy Hoji bilan birgalikda asos soladi. Gʻulom Hasan Orifjonov dastlab uyida muqovaxona tashkil qilib, bu yerda eski kitoblarni muqovalash, titilib ketgan kitoblarni tartibga solib qayta tikish, yelimlash bilan shugʻullangan[42]. Keyinchalik “Gʻulomiya” nomi bilan mashhur boʻlgan kattagina nashriyotni tashkil etadi. Bu nashriyot mahalliy millat vakillaridan butun boshli matbaachi mutaxassislarni yetishtiradi.

Dastlab bosmaxonada ilk toshbosma mashina bilan nusxa oluvchi stanok boʻlib, dastlab kitoblar igna bilan qoʻlda tikilgan. Dastlab tashkil etilgan paytda mahalliy millat vakillari orasida litografiya bilan ishlovchi mutaxassislar juda kam boʻlganligi uchun, avstriyalik mutaxassis yetakchi matbaachilardan boʻlgan. Toshkentlik Eshonqul Qodirov litografiyaga ishga kirgan paytda dastlab shu avstriyalik mutaxassisdan matbaachilik sirlarini oʻrganadi[43]. “Gʻulomiya” matbaasida rus mutaxassislardan Danilin va Vasilyevlar ham faoliyat olib borgan[44]. Bu mutaxassislar nashriyotga 1913-yilda 40 kilovattlik neftda ishlovchi motorlar oʻrnatishadi. Shu tariqa nashriyot elektr-bugʻda ishlovchi litografiyaga aylanadi[45]. 1913-yildan “Gʻulomiya” litografiyasida chiqarilgan kitoblarning sifat darajasi ancha oʻsadi va ajoyib rang va bezaklar bilan chop etila boshlandi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, “Gʻulomiya” litografiyasining eng katta xizmatlaridan biri mahalliy millat orasidan tajribali matbaachi mutaxassislarni yetishtirganligidir. Bu nashriyotda Akbar Maxsum Saidov, Abdurahmon Saidboyev, Eshonqul Qodirov, Obid Olimboyev, toshkentlik Norali va Shukurlar, Orif Musaqoriyev, Yoʻldosh Toshqoriyev kabi matbaachilar avstriyalik, rus va tatar mutaxassislardan noshirlik faoliyatini oʻrganib, yetakchi mutaxassis boʻlib Yetishdilar. Masalan, Abdurahmon Saidboyev dastlab muqovaxonaga ishga yollangan boʻlsa, keyinchalik harf teruvchi boʻlib ishlaydi. Akbar Maxsum Saidov dastlab muqovaxonada ishlaydi, keyinroq Norali va Shukurlardan matbaachilik hunarini oʻrganadi[46]. Oktabr inqilobi arafasida matbaada toʻrt litografik mashina, uchta nusxa koʻchiruvchi qurilma, zarhallovchi dastgoh, qirquv mashinasi boʻlib, bosmaxonada xattotlardan tashqari 40 kishi mehnat qilgan[47].

“Gʻulomiya” litografiyasida Ibn Hojibning “Mushkuliyot” kitobi, Bedil gʻazallari toʻplami, Alisher Navoiyning devoni, “Ustodi avval”, Abdurahmon Sayyohning “Meʼyor ul-axloq”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Chor kitob”, Furqat gʻazallari, “Taʼlimi avval” va shular kabi koʻplab asarlar chop etiladi. Oktyabr inqilobidan soʻng 1918-yil mart oyida bosmaxona

musodara qilindi. Bu matbaada 1920-yil chop qilingan “Soli taxtin” asarida Gʻulom Hasan Orifjonov nomi soʻnggi marotaba qoʻyilgan. Bu nashriyot faoliyati davomida 70 dan ortiq nomdagi turli kitoblarni nashr qilib, oʻzbek matbaachilik tarixida salmoqli iz qoldirdi[48].

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda matbaachilikning tashkil topishi va taraqqiyotida hamkorlik munosabatlari masalasi deyarli yetarlicha oʻrganilmagan. Xususan, sovet davri tadqiqotlarida Turkistondagi vaqtli matbuot va matbaachilikning sotsialistik inqilobning yuzaga kelishi hamda rivojlanishidagi oʻrni yoritishga ustuvor ahamiyat berilgan. Biroq mazkur izlanishlarda mahalliy matbaalarning faoliyati asosiy tadqiqot obyekti sifatida koʻrib chiqilmagan, asosan mustamlakachi kuchlar tomonidan tashkil etilgan matbaalar faoliyati tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarda Turkistondagi vaqtli matbuot va matbaachilik masalalariga murojaat etilgan boʻlsa-da, ularning vujudga kelishi va rivojida hamkorlik aloqalarining tutgan oʻrni alohida ilmiy yoʻnalish sifatida chuqur oʻrganilmagan. Shunday ekan, mazkur masala milliy matbaa va matbuot tariximiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri boʻlib, hali oʻz tadqiqotchilarini kutayotgan muhim yoʻnalish hisoblanadi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана (1870–1925 гг.). – Ташкент: Ўқитувчи. – С. 10.
2. Сафиуллина Р.Р. История книгопечатания на арабском языке в России у мусульман Поволжья. – Казань, 2003. – С. 33–34.
3. Каримуллин А.Г. У истоков татарской книги. – Казань, 1992. – С.117.
4. Abdurashidov Z. Tarjimon (1883–1917) gazetasi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. – B. 5.
5. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870–1914). – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 27.
6. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-roʻyxat, 2879-ish, 16–20-varaqlar.
7. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-roʻyxat, 2879-ish, 32–37-varaqlar.
8. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-roʻyxat, 2879-ish, 54–56, 73–74-varaqlar.
9. Чабров Г.Н. Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане (1868–1917) // Труды САГУ им. В.И. Ленина, новая серия. Вып. 57, исторические науки. Кн. 7. – Ташкент, 1954. – С. 79.
10. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-roʻyxat, 4932-ish, 1–6-varaqlar.
11. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 8-roʻyxat, 477-ish, 1-varaq.
12. Husayn Shams. Matbaachilik va uning tarixi. – Toshkent: Uzgosizdat, 1930. – B. 23.
13. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 17-fond, 1-roʻyxat, 504-ish, 7-varaq.
14. Oʻzbekiston SSR tarixi. II tom, ikkinchi kitob. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1957. – B. 234.
15. Oʻzbekiston SSR tarixi. II tom, ikkinchi kitob. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1957. – B. 248–249.
16. Matyakubova M.M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. Tarix fanlari nomzodi diss. – Urganch: 2008. – B. 132.
17. Atamuratova D.R. Xorazm tipoliyografiyasida nashr qilingan ayrim adabiyotlar tahlili // Yangi davr ilm-fani: Inson uchun innovatsion gʻoya va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2025. – B. 29.
18. Matyakubova M.M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. Tarix fanlari nomzodi diss. – Urganch: 2008. – B. 134.
19. Abdurashidov Z. Tarjimon (1883–1917) gazetasi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. – B. 8.
20. Османова М.Н. Старопечатная книга в Средней Азии в конце XIX – начале XX в. // Вестник института ИАЭ, 2013, №2.
21. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979. – B. 145.
22. Oʻzbekiston milliy arxivi. I. 36-fond, 1-roʻyxat, 3615-ish, 10–11-varaqlar.

23. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912. – С. 297.
24. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – B. 107.
25. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 103.
26. Османова М.Н. Старопечатная книга в Средней Азии в конце XIX – начале XX в. // Вестник института ИАЭ, 2013, №2.
27. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – B. 107.
28. Husayn Shams. Matbaachilik va uning tarixi. – Toshkent: Uzgosizdat, 1930. – B. 29.
29. Qosimov B. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. –Toshkent: Ma’naviyat, 2004.–B. 111.
30. Dolimov U. Is’hoqxon Toʻra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 100.
31. Dolimov U. Is’hoqxon Toʻra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 102.
32. Чабров Г.Н. Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане (1868–1917) // Труды САГУ им. В.И. Ленина, новая серия. Вып. 57, исторические науки. Кн. 7. – Ташкент, 1954. – С. 81.
33. Dolimov U. Is’hoqxon Toʻra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 105.
34. Османова М.Н. Старопечатная книга в Средней Азии в конце XIX – начале XX в. // Вестник института ИАЭ, 2013, №2.
35. Ziyo Said. Oʻzbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927). – Toshkent–Samarqand: Oʻzbekiston davlat nashriyoti, 1927. – B. 53.
36. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 107.
37. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 111.
38. Abdurashidov Z. Tarjimon (1883–1917) gazetasi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. – B. 9.
39. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot
40. va san’at nashriyoti, 1979. – B
41. Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана (1870–1925 гг.). – Ташкент:
42. Ўқитувчи. – С. 10.
43. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 115.
44. Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана (1870–1925 гг.). – Ташкент:
45. Ўқитувчи. – С. 10.
46. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 172.
47. Махмудова Р. Литографированные произведения и их значение в истории узбекской литературы (конец XIX – начало XX в.). Автореф. дисс. … канд. филологических наук. – Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, Институт востоковедения им. Абу Рейхана Беруни, 1971.
48. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 169.
49. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 73.
50. Эрназаров Т, Акбаров А. История печати Туркестана (1870–1925 гг.). – Ташкент:
51. Ўқитувчи. – С. 10.
52. Boboxonov A. Oʻzbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – B. 174.

// SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/11 (5) – 2025*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).